

## INGLIZ TILIDA SUBYEKTIV BAHO MUNOSABATLARI

*Husanova Nilufar Saydulloyevna*

*FarDU Lingvistika ingliz tili magistranti*

*Mahmudova Nargiza Ravshanovna*

*FarDU ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Abstract:** The article discusses the definition of subjective evaluation, the views to its approach and the notion of author's position in literary texts. In addition to this, the following paper presents data related to the methods and means of realizing subjective evaluation in English and Uzbek languages as well as provides practical examples of them.

**Key words:** subjective evaluation, stylistics, literary texts, sense, language, linguistics, methods, means, realization

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilida so'zlovchining obyektga subyektning munosabatini bildirishda ijobiy yoki salbiy uslubiy bo'yoqni yuzaga keltiruvchi sath birliklarining so'zlashuv, badiiy, publitsistikada ifodalanishi haqida.

**Kalit so'zlar:** subyekt, obyekt, leksik sath birlik, morfemik sath birlik, fonetik sath birlik, baho munosabati.

**Аннотация:** В статье рассматриваются определение субъективной оценки взгляды на ее подход и понятие авторской позиции в художественных текстах. Дополнение к этому в следующей статье представлены данные о методах и средствах реализации субъективной оценки на английском и узбекском языках а также приведены их практические примеры.

**Ключевая слова:** субъективная оценка, стилистика, литературные тексты, смысл, означает, реализация, язык, метод.

Jahon tilshunosligida insonning borliqqa munosabati, uni anglash qobiliyati hamda turli shakllardagi qadriyatlarni lisoniy nuqtai nazardan o'rganuvchi aksiolingvistika faniga so'nggi paytlarda katta e'tibor qaratilmoqda. Til nafaqat shaxslararo muloqotni amalga oshiruvchi, balki voqelikdagi muayyan hodisalarning ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini kommuni-katsiya ishtirokchilariga yetkazib beruvchi vosita ekanini e'tiborga oladigan bo'lsak, har qanday xalq tilining qadriyatlarini anglatuvchi lisoniy birliklar tadqiqi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa, albatta, turli tillar-dagi baholash mazmunini ifodalovchi, baho munosabatini o'zida mujassam etgan til birliklarini tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo tilshunosligida pragmatik bilimlar lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi tutash fanlar bilan uyg'un holda o'rganilmoqda. Turli tillarda muloqot jarayonida voqelikka nisbatan baho

munosabatining aks etishi va bunda aksiologik omillar ta'siri tadqiqi pragmalingvistikaning o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, baho turlarini ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma tadqiqi asosida o'rganish, umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash, har bir tilning o'zigagina xos bo'lgan obyektiv va subyektiv, ijobiy va salbiy baho elementlarining lingvistik-stilistik xususiyatlari tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda chet tillarini o'rganish keng tus olmoqda. Zero, davlatimiz rahbarimiz ta'kidlaganlaridek, «biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yar ekanmiz, bitiruvchilarimiz kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart». Bu yo'ldagi izlanishlarda chet tillari va ona tilini chog'ishtirib o'rganish, tillardagi lisoniy unsurlarning allomorf va izomorf jihatlarini keng tadqiq muhimdir. Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillari turli tizimdagi tillar bo'lib, til egalarining madaniyati ham o'zaro keskin farqlanadi. Har ikki til vakillarining o'ziga xos mental, etnik xususiyatlari, xalqning milliy o'tmishi, ma'naviy-axloqiy dunyosi, estetik qarashlari, marosim va urf-odatlarini, hayot tarzi, muomala madaniyati, e'tiqodiy qarashlari, bir so'z bilan aytganda, xalqning milliy mentaliteti uning qadriyatlarida o'z aksini topadi. Milliy qadriyatlar bahoning tarkibiy qismi sifatida nafaqat falsafa, mantiq fanlarida shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda ham tadqiq etilmoqda va bunda til sath vositalari orqali baho ifodalanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ingliz va o'zbek tillarida baho munosabati ifodalanishida til sath birliklarining chog'ishtirma tadqiq etish va bunda aksiologik omillarga e'tibor qaratilishi lozim.

Baho semantik kategoriyasida darajalanish bilan birga quyidagi baho turlarini ko'rishimiz mumkin. 1. So'zlovchining hissiy holatiga ko'ra: his-siy baho va aqliy baho. Masalan, hissiy baho: «Ah, darling, it's Behrman's masterpiece-he painted it there the night the last leaf fell». (O.Henry. The Last Leaf) Aqliy bahoga misol qilib sud jarayonida sudyaning bildirgan fikrlarini olish mumkin. Uning vaziyatga bahosi mantiq va aqlga tayangan bo'lishi lozim. 2. Tushunchaning ijobiy yoki salbiy qabul qilinishiga ko'ra: gedonistik va estetik baho. Gedonistik baho: rohatbaxsh musiqa, yoqimli shaboda; bemaza taom, sifatsiz mahsulot. Estetik baho: tartibli xona, go'zal qiz; to'zg'igan uy, badbashara mahluq. 3. Makon va milliylik tushunchalariga ko'ra: o'zbek milliy bahosi, ingliz milliy ba

hosi. Ayrim tushunchalar biror joyda yoki millatda qo'llanishiga ko'ra ijobiy yoki salbiy baho kasb etadi. Masalan, ingliz millati vakillari cho'chqa so'zini ijobiy baho ifodalashda qo'llashadi: Look at those lovely little piggies, James! He's got little piggy eyes! Lekin o'zbek millatida islom dini bilan bog'liq holda cho'chqa harom sanaladi va bu hayvon, u qatnashgan birikmalar salbiy baho ifodalaydi: Kimlar bo'lardi – padar la'nat cho'chqalar-da. (T.Murod)

Demak, baho semantik jihatdan boshqa til hodisalaridan farqli va o'xshash xususiyatlarga ega, u nutqda uslubiy xoslanib til sath vositalari orqali ifodalanadi hamda ma'nosiga ko'ra darajalanib, guruhlarga bo'linadi.

Ma'lumki, zamonaviy tilshunoslikda fonetika asosida fonosemantika, fonostilistika, fonopragmatika kabi fanlar taraqqiy etib bormoqda. Fonetik sath vositalari orqali baho munosabati ifodalanishini tahlil qilishda ushbu sohalarga murojaat qilish o'rinli. Xususan, fonetik sathning segment va supersegment vositalari orqali pragmatik ma'no ifodalanishi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi sohalardan biri fonopragmatika tarkibida o'rganilmoqda va ingliz va o'zbek tillarida baho munosabatining fonetik vositalar orqali ifodalanishining chog'ishtirma tadqiqi ham ushbu sohadagi izlanishlardan biridir.

Nutq tarkibida baho munosabati segment vositalar orqali asosan quyi-dagi ko'rinishlarda aks etadi: a) unli tovushlarni kuchli talaffuz qilish: Kind Heaven! What a realization of paradise! What a consummation of luxury! (Th.Dreiser, An American tragedy); b) unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish: «Hurrah for Orville!» «Good for you, Judge!» (his new or fast-approach-ing title). «By God! Orville Mason, you deserve the thanks of this county!» «Hy-oh! Heigh! Heigh!» «Three cheers for Orville Mason!» (Th.Dreiser. An American tragedy); v) undosh tovushlarni qavatlash: “Will you listen to dis now?” exclaimed Hegglund, dramatically. (Th.Dreiser, An American tragedy)

Tovushlarning kontekst tarkibida ishlatilib ijobiy yoki salbiy baho munosabatini yuzaga keltirishini amaliy o'rganish maqsadida ingliz adabiyotida 26 ta va o'zbek adabiyotida 27 ta epik janrga kiruvchi hikoya, ertak, latifa, afsona, roman, qissa, memuar asar, diniy kitob, ilmiy ma'rifiy risola kabi nasriy asarlardan olingan 500 tadan ko'proq parchalar, gaplar ijobiy va salbiy baho anglatish xususiyatidan kelib chiqib tahlil qilindi. Izlanishlar natijasida ingliz tilida unli tovushlar orqali ijobiy baho munosabati aks etgan misollar soni 20 tani tashkil qildi. Shulardan [ɑ:] tovushi bilan 1 ta, diftonglardan [eə] 1 ta, [æ] bilan 3 ta, [u] tovushi bilan 2 ta, [əʊ] diftongi bilan 12 ta holatlarda ijobiy baho xususiyati ifodalangan.

Ikki tilda ham qo'shimchalar orqali baho munosabati yuzaga keladi. Ingliz tilida bas-, mis-, dis-, un- qo'shimchalari salbiy baho bildirgan so'zlar yasaydi: bastard, misfortune, disbelief, uncheerful. -ie, -y qo'shimchalari ingliz tilida kichraytirish-erkalash ma'nosi bildirgan otlari yasab ijobiy baho hosil qiladi: doggie, kitty. O'zbek tilida -be, bad- qo'shimchalari salbiy bo'yoqdorlikni hosil qiladi: bebosh, badfe'l, ba-, xush- so'z yasovchi qo'shimchalari ijobiy baho munosabatini hosil qiladi: bahavo, xushfe'l.

Sintaksisda baho munosabati ifodalanishi matnning ochiq (explicitness of the text) va yashirin (implicitness of the text) ma'nolari orqali aks etadi. Masalan, «O'tkan kunlar» asarida matnning ochiq mazmuni Otabek va Kumush o'rtasidagi sevgi

hikoyasi bo'lsa, voqealar rivoji davomida asarning yashi-rin ma'nosi, yozuvchining o'sha davr, tuzum haqidagi salbiy bahosi aks etgan.

Gap mazmuni orqali sintaktik sathda baho munosabatini ifodalash usullaridan biri inversiyadir. Bilamizki, ingliz tilida so'z tartibi o'zbek tilga taqqoslanganda birmuncha qat'iy va o'zgarimas. Odatiy gaplarda ega + kesim + gapning ikkinchi darajali bo'laklari qurilmasi ishlatiladi va bu qurilmada ega va kesim o'rni o'zgarishiga inversiya hodisasi deyiladi va inversiyaning ayrim turlarida baho munosabati ifodalanadi. Masalan: A little disgusted and depressed he turned to retrace his steps, for all at once he felt himself very much of a nobody. (Th.Dreiser. An American Tragedy)

Ingliz tilidan farqli ravishda o'zbek tilida so'zlar tartibi asosan erkin. Gapdagi bo'laklarning o'rni o'zgarishi ularning grammatik holatlariga ta'sir qilmaydi, biroq har bir tartib o'zgarishi logik urg'uga, so'zlovchining asosiy e'tibori qaratilayotgan ma'noga ta'sir ko'rsatadi va baho munosabatini bildiradi: – Sharmanda qib hammani, hech narsa bo'lmaganday endi kelyapsanmi, Muhabbat! (Gazetadan) Yozda shuncha yalindim, – deydi shang'illab, – jon aka, cho'lda ko'p yurasiz siz, bir aravagina saksovul obkeb bering, desam, noz qildingiz. (O'.Hoshimov)

Demak, gap bo'laklarining meyoriy tartibi o'zgartirilsa, chog'ishtirilayotgan tillarning ikkalasida ham inversiya hodisasi yuz beradi va bunda so'zlovchining so'zlashdan maqsadi asosiy planga chiqib ekspressivlik, emotsionallik, xususan, baho munosabati yuzaga keladi.

Ingliz va o'zbek adabiyotidan olingan misollarda undoshlarni qavatlash usuli bilan emotsionallik yuzaga kelgan jami 71 ta parchalar, gaplar tahlilga tortildi va umumlashtirildi. Chog'ishtirilayotgan tillarda undosh tovushlar orqali baho munosabatining yuzaga chiqishining 46 ta hola-ti aniqlandi. Shundan ingliz va o'zbek tillarini umumlashtirganda 15% holatda ijobiy baho va 85% salbiy baho undoshlar orqali amalga oshgan.

Ma'lumki, fonetik sath vositalaridagi mavhumlik baholash jarayonida ham aks etadi va ulardagi ko'p ma'nolik, variantlarga egalik xususiyatlari so'zlovchiga nutq vaziyatiga qarab fonetik vositalardan ijobiy yoki salbiy baholashda foydalanish imkonini beradi. Shunga qaramasdan, tadqiqotimiz natijalariga tayanib aytishimiz mumkinki, har ikki til vakillari ham sal-biy baholash jarayonida unli tovushlarga ko'proq, undosh tovushlarga qisman murojaat qilishadi va voqelikka o'z munosabatlarini bildirishadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ruzmetova, M., Orazova, F., Kayumova, G. (2020). The Role of Teaching Vocabulary Competence in English. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 509-513.

2. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.- T.: Fan, 1983. -B.29.
3. Ibragimova E. Lingvistik baho – aksiologik tadqiqot obyekti sifatida. FDU Xabarlari. 2011, №3
4. Ibragimova E. O‘zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalashning usul hamda vositalari. Filol. fanlari nomz... avtoref. -T., 2002
5. Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘ganish (Shaxs mikromaydoni): Filol. fanlari d-ri ... avtoref. -T., 1999.
6. Mamadaliyeva M.A. O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekta. Filol.fanlari nomzodi ... dis. avtorf. - T., 1998
7. Mamatov A. Frazеologik stilistika masalalari. -T.: Fan, 1991.
8. O‘zbek tili grammatikasi. — T.: Fan, 1975. I tom.
9. O‘zbek tili grammatikasi. — T.: Fan, 1975. II tom.
10. O‘zbek tilining izohli lutati. 2 tomli. T.1, 2, —M.: Rus tili, 1981
11. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Morfologiya) /
12. Kollektiv. — T.: Yangi asr avlodi, 2001. — B. 164.
13. Qo‘ng‘urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. –T.: Fan, 1980.